



TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI VA O'ZBEKISTON, BUGUNGI VA KELGUSI REJALAR

Isroilov Sardorbek Samandar og'li

Abiyorov Sayfullo Nabijon o'g'li

Hojimurodov Sardorbek Muzaffar o'g'li

*Jahon Iqtisodiyoti Va Diplomatika Universiteti Xalqaro Munosabatlar Fakulteti Xalqaro
Munosabatlar Yo'nalishi 1-Bosqich Talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy dunyo mamlakatlarining dunyo geosiyosiy maydonida tutgan o'rni va bu davlatlarni birlashtirgan Turkiy Davlatlar Tashkilotining bugungi kundagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'zbekistonning bu tashkilotda tutgan pozitsiyasi, qarashlari va istiqboldagi ko'zlangan maqsadlari yoritib berilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена роли стран тюркского мира в мировом геополитическом пространстве и значению Организации тюркских государств, объединяющей эти страны. Также освещены позиция, взгляды и будущие цели Узбекистана в этой организации.

Abstract: This article is devoted to the role of the countries of the Turkic world in the global geopolitical space and the importance of the Organization of Turkic States, which unites these countries. The position, views and future goals of Uzbekistan in this organization are also highlighted.

Kalit so'zlar: mintaqaviy tashkilotlar, mintaqaviy xavfsizlik, soft power, tranzit boj, turizm, integratsiyalashuv jarayonlari, ekologik muammolar, o'zaro investitsiyalar.

Key words: regional organizations, regional security, soft power, transit duty, tourism, integration processes, environmental problems, mutual investments

Ключевые слова: региональные организации, региональная безопасность, мягкая сила, транзитная пошлина, туризм, интеграционные процессы, экологические проблемы, взаимные инвестиции

Bugungi zamonaviy dunyoda davlatlararo aloqalar o'ta pragmatik va dinamik ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu bois, mintaqaviy tashkilotlarning tutgan mavqeyi umumjahon xalqaro tashkilotlariga qaraganda salmoqli o'rin egallay boshladi. Natijada ko'plab davlatlar mintaqaviy tashkilotlar bilan aloqalarni chuqurlashtirishga harakat qilmoqdalar. Bunday turdagi tashkilotlarda har doim davlatlarning qarashlar va an'analar mushtarakligi kuzatiladi va asosiysi davlatlarning milliy manfaatlari har tomonlama hisobga olinadi. Xuddi shunday tashkilotlardan biri Turkiy Davlatlar Tashkilotidir. Har bir davlat o'z manfaatlarini hisobga olib siyosat olib bormoqda chunki bu davr talabi hisoblanadi. Turkiy tilda so'zlashuvchi Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon kabi davlatlarda bir qator ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy muammolar ko'zga tashlanmoqda. Eng asosiy muammo bu davlatlarga gigant davlatlar hisoblanmish



Rossiya va Xitoy ta'sirining har tomonlama ortib borayotganligi va natijada mustaqil siyosat yuritishda vujudga kelayotgan to'siqlardir. Turkiy Davlatlar Tashkilotining tuzilishi bu muammoni hal qilishga yordam berishi mumkin sababi bugungi kunda bu tashkilotning drayveri hisoblanmish Turkiya iqtisodiy, harbiy jihatdan dunyo liderlari safidan o'rin egallamoqda. Bu tashkilot a'zolarining ustun jihatlari to'xtaladigan bo'lsak: qulay geografik makon, til, din va madaniyat birligi hisoblanadi. Bu omillar ham tashkilotning nufuzini belgilashda juda katta yordam beradi


Turkiy zamon xalqlar qadimdan bir zaminda Turon diyorida o'zaro hamkorlikda hayot kechirib kelishgan. Bugungi kunga qadar ko'plab voqea-hodisalar bu xalqlar tarixida sodir bo'ldi va ayrim davrlarda bu xalqlar mustamlakachi davlatlarning ta'siriga tushib qoldi, natijada ko'plab qiyinchiliklarga duchor qilindilar. Achinarli tomoni shuki turkiy tilli xalqlarning o'zaro aloqalari ham uzib qo'yildi, bu xalqlar yakkalab qo'yildi va bu holat Sobiq Ittifoq parchalanganigacha qadar davom etdi. 1991-yilga qadar butun jahonda turkiy zamonada so'zlashuvchi yagona mustaqil davlat Turkiya bo'lgan, qolgan beshta davlat esa SSSR tarkibidagi respublikalar edi. Shuning uchun ham mazkur respublikalar va Turkiya o'rtasida har qanday tashkilot tuzish imkonsiz hodisa edi va markaz bunga tish-tirnog'i bilan qarshilik qilardi.

1991-yil oxiriga kelib Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon mustaqilligini e'lon qildi, so'ngra bu davlatlar xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subektiga aylandi.²⁴ Natijada bu xalqlar uchun o'zaro aloqalarni qayta tiklash uchun imkoniyatga ega bo'ldilar va bu turkiy xalqlarning kelajagini tom ma'noda hal qiladigan siyosiy jarayon bo'lgan. Aynan bunday qulay vaziyatda o'zaro turkiy xalqlar ittifoqini tuzish rejasi Turkiya yetakchisi Turg'ut O'zal tomonidan ilgari surildi. Amalda bu ittifoqni tuzish uchun 1992-yil 30- oktabrda Turkiya poytaxti Anqarada birinchi marotaba "Turkiy tilli davlatlar sammiti" o'tqazildi²⁵. Bu sammitda turkiy dunyo davlatlarining liderlari Abulfayz Elchibiy, Islom Karimov, Nursulton Nazarboyev, Asqar Akayev, Saparmurod Niyozov va Turg'ut O'zal qatnashdilar.²⁶ Bu yig'ilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri iqtisodiy hamkor davlatlar ittifoqini vujudga keltirish edi. Bunday ittifoq shartnomasining imzolinishi natijasida turkiy xalqlar o'rtasida o'zaro aloqalarni chuqurlashtirish, yo'qolib ketgan milliy qadriyatlarni tiklash va siyosiy jihatdan bir birini qo'llab quvvatlaydigan davlatlar blokini vujudga keltirish yo'lidagi intilishlarning dastlabki istiqboli bo'lgan. Turkiya tashabbus ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri mintaqada tarqalib ketgan turk xalqlarini bir maqsad ostida qayta birlashtirish va bu tashkilotning yo'l boshchisiga aylanish ko'zlangandi. Turkiyaning bu tashkilotni tashkil qilish orqali bir qator strategik rejalari bor edi. Birinchidan, Turkiyaning xalqaro obro'sini oshirish, liderlik qobiliyatini namoyon qilish va shu orqali dunyodagi eng nufuzli mamlakatlardan biriga aylanish hisoblanadi. Masalan, Turkiya Tashqi ishlar vaziri Mavlud Chavusho'g'li: "Bugun Ukraina Turkiy zamon Davlatlar Hamkorlik

²⁴ <https://xs.uz/uz/post/turkiy-davlatlar-tashkiloti-kecha-va-bugun>

²⁵ https://ru.wikipedia.org/wiki/Организация_тюркских_государств

²⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_davlatlar_tashkiloti





Kengashida (Turkiy Davlatlar Tashkiloti) kuzatuvchi maqomini olish tarafdori. Bu masala 12- noyabrda Turkiy Kengash sammiti rahbarlari muhokamasiga qo'yiladi". Bu to'g'ridan-to'g'ridan MDH va uning yirik a'zosi Rossiyaga bo'lgan katta chaqiriqdir. Ikkinchidan, Turkiya eksport tovarlarini va xizmatlarini sotish uchun keng yo'lak ya'ni ichki keng bozor yaratish maqsadida turkiy tilli mamlakatlar bilan turli xil savdo-iqtisodiy shartnomalar imzolash va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishga ma'lum darajada hissa qo'shish bo'lmoqda. Sababi, Turkiya eksport tovarlari turkiy davlatlar mamlakatlari bozorlarida ichki raqobatga va standartlarga javob bera oladi. Uchinchidan, turk geosiyosiy loyihasi bir paytlar dunyodagi eng buyuk imperiyalar qatorida bo'lgan Usmonli imperiyasining tarixiy o'tmishidan kelib chiqqan bo'lib, Turkiyabon davlatlarni o'z sivilizatsiyasi maydoniga jalb etishni vazifalaridan biri sifatida belgilab beradi. Turkiyaning moliyaviy ta'sir kuchi AQSh yoki Xitoy bilan taqqoslanmasa-da, Turkiyaning bu mintaqadagi soft poweri²⁷ birinchi navbatda ta'lim muassasalari, biznes tuzilmalari va xalqaro tashkilotlar orqali madaniy, gumanitar, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga asoslanadi. Asosan gumanitar dasturlardan tashqari, Turkiya hanuzgacha iqtisodiy va so'nggi paytlarda muhim bo'lgan (bu uni Rossiya bilan raqobatlashadigan holatga keltirib) harbiy-texnik yordam ko'rsatishga sarmoya kiritmoqda. Masalan, Turkiya bu mintaqada hududidan kelgan talabalarga grantlar ajratadi, mintaqada davlatlariga harbiy texnika taklif qiladi, harbiylar va huquq-tartibot idoralari xodimlarini bepul o'qitadi²⁸. Shu sababli ham Turkiya bu tashkilot bilan hamkorlikni har qachongidan ham chuqurlashtirishga intilmoqda.

Qozog'istonning ham bu xalqaro tashkilotga a'zo bo'lib kirishdan ko'zlagan maqsadlari bor. Xususan, Turkiy kengashning tashabbuskorlaridan biri Qozog'iston Respublikasining birinchi prezidenti Elboshi Nursulton Nazarboyev edi. Turkiy kengashning birinchi sammiti ham 2011-yil 21-oktabrda Olmaota shahrida bo'lib o'tdi. Qozog'iston hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishga, Yevropa va Turkiy davlatlar bilan integratsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtirishga intilmoqda. Shu sababli ham mamlakat ko'plab umumjahon va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'lishga harakat qilyapti. Qozog'iston eksport mahsulotlarining aksariyatini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil qiladi. Ayniqsa mamlakat don eksporti bo'yicha dunyo miqyosida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Aynan shu holatda davlat uchun Turkiy dunyo mamlakatlari ichki bozorlariga don eksportini kuchaytirish har tomonlama foydalidir. Shuningdek Qozog'iston bugungi Markaziy Osiyoda yetakchilik uchun da'vo qilayotgan davlatdir. Shularni hisobga olib Qozog'iston amaldagi prezident Qosim Jo'mart To'qayev boshchiligida ochiq, pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda.

Tashkilot muhim azolaridan yana biri Ozarbayjon Respublikasi hisoblanadi. Bu mamlakat hozirgi kunda Janubiy Kavkaz mintasining yo'lbarlaridan biridir chunki

²⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/Soft_power

²⁸ <https://www.caa-network.org/archives/21989/turcziya-v-czentranoj-azii-vliyanie-i-limity>



mamlakat ulkan iqtisodiy salohiyatga ega. Mamlakat Yevropa bilan Osiyoni bog'laydigan yo'llar chorrahasida joylashgan va shu tufayli tranzit bojlardan katta foyda oladi. O'zbekistonning qadimiy shahri Samarqandda bo'lib o'tgan Sammitda Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyev ta'kidlaganidek turk dunyosi bundan buyon ham bir-birining milliy manfaatlarini inobatga olgan holda bir-birini qo'llab quvvatlashi va hamjihatligini ko'rsatishi zarur. Ozarbayjon yetakchisi tomonidan bir qator takliflar ilgari surildi. Ilhom Aliyev o'z nutqida bir masalaga to'xtalib, turk dunyosi faqat mustaqil turk davlatlaridan iborat emasligini, uning geografik chegaralari yanada keng ekanligini ta'kidladi. Uning bu nutqidan anglashiladiki, bu davlatlar chegaralaridan tashqarida ham turkiy xalqlar jumladan, ozarlar istiqomat qiladilar (Eron hududida 16 million ozarlar yashab kelmoqda). Ilhom Aliyev shuningdek, savdo aloqalari, o'zaro investitsiyalar mintaqaviy megaloyihalar salmog'ini oshirish kerakligini takidladi. Bundan anglashiladiki, Ozarbayjon turkiy zaminda o'z so'zini aytadigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining faol savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishi uchun har doim geografik muammolar asosiy to'siq bo'lib kelgan. Ukrainadagi urush tufayli bu vaziyat yanada chuqurlashib ketdi, va shu bilan birga bu vaziyat muqobil yo'llarni izlashga asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'muriyati bu masalani hal qilish bo'yicha zalvorli ishlarni amalga oshirdi. O'zbekiston Respublikasi 2019-yilda Turkiy Davlatlar Tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lib kirdi va Turkiya bilan aloqalarni rivojlantirishga jadal harakat qila boshladi. Turkiya O'zbekiston uchun Rossiya, Xitoy, Qozog'istondan keyingi o'rinda turuvchi asosiy savdo hamkor hisoblanadi va bundan kelib chiqadiki, Turkiya bilan savdo aloqalarini yuqori sur'atlarda rivojlantirish mamlakatimiz rivoji uchun juda muhim hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida Turkiya tomon jiddiy siljish ro'y berdi va Turkiya O'zbekiston uchun strategik sherikka aylandi. Joriy yilning fevral oyida Turkiya prezidenti Rajeyip Tayep Erdo'gan O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bu tashrif davomida o'zaro 10 ta hujjat jumladan, savdo-sotiq, mudofaa sohasida hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Raqamlar bilan aytadigan bo'lsak savdo-sotiq hajmi 72 foiz oshib, 3,6 mlrd AQSH dollaridan oshib ketdi.²⁹

Turkiy tilli davlatlar hamkorligi kengashi Turkiya prezidenti Erdo'gan tashabbusi bilan Turkiy Davlatlar Tashkilotiga 2021-yil 12-noyabrda aylantirildi va uning strukturasi isloh qilindi. Vengriya Bokudagi yig'ilishda tashkilotga kuzatuvchi davlat sifatida (Turkmaniston singari) a'zolikka qabul qilindi. Tashkilot a'zolarining navbatdagi yig'ilishi joriy yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqandda o'tkazildi. Bu yig'ilishda mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev tomonidan qator takliflar ilgari surildi. Bu takliflar nima uchun kerak degan savol tug'ilishi tabiiy holat. Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda va bu bizni chuqur o'ylangan tashqi va ichki siyosat olib borishga majbur qiladi. Bilamizki, bugungi kunda ekologik vaziyat yomonlashib bormoqda va bizdan buni oldini olishga doir yechimlar ishlab chiqishni

²⁹ <https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/10197/>



taqazo qilmoqda .Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Turkiy davlatlarning atrof-muhit muhofazasi bo’yicha tuzilmasini tuzish” tashabbusini ilgari surdi.Bu taklif ayni paytdagi dolzarb muammo hisoblangan-ekologiya muammosini hal qilishda juda muhim sanaladi. Davlatimiz rahbari yirik transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish orqali Yevropa, Xitoy va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish, “Boku-Tbilisi-Kars” yangi temir yo’lining salohiyatidan unumli foydalanish zarurligini ta’kidladi. Sayyohlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo’yicha ham amaliy takliflar aytili.O’zbekiston tomonidan turkiy tilli davlatlar o’rtasida “Turkiy dunyo turizmi” va “Tabarruk ziyorat” sayyohlik loyihalarini amalga oshirishga doir ilk qadamlar tashlandi .Turizmni qo’shma dasturlar orqali rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyoti ravnaqi uchun nihoyatda muhim chunki bu orqali Respublikamizga keluvchi xorijlik sayyohlar salmog’i oshadi.Bugungi kunda Shavkat Mirziyoyev Afg’onistondagi murakkab vaziyatga e’tibor qaratib , vaziyatni barqarorlashtirishga doir chora tadbirlar amalga oshirishni ,mamlakatning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga yo’l qo’ymaslikni takidlamogda .Shu maqsadda Turkiy Davlatlar Tashkiloti rahbarlarini bu masalaga alohida e’tibor qaratishga chaqirdi.Buning asosiy sababi mintaqadagi barqarorlikni va xavfsizlikni ta’minlash va mamlakatimizning turkiy dunyodagi nufuzini har tomonlama oshirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xalqaro munosabatlar va xalqaro tashkilotlar,Toshkent 2008
- 1.Yangi O’zbekiston strategiyasi kitobi ,2021-yil

